



SAMARQANDDAGI ZAMONAVIY SHAHARSOZLIK OB'YEKTLARIDA NAQSH VA BEZAKLARNI QO'LLANILISH ASOSLARI

¹Mahmatqulov Ilhom Turdimurodovich

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Arxitektura fanlari
bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent,

²Sherqulova Dilafruz

Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Arxitektura
nazariyasi va tarixi arxitektura yodgorliklarini tiklash"
mutaxassisligining 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7561237>

ARTICLE INFO

Received: 14th January 2023

Accepted: 21th January 2023

Online: 23th January 2023

KEY WORDS

Shaharsozlik, boqiy shahar,
turizm, eski shahar, uslub,
mohiyat, arxitektura, yodgorlik,
ansambl, naqsh, kompozitsiya,
islmiy, girih, yodgorlik, obida,
maqbara, kundal, naqqosh.

ABSTRACT

Maqolada Samarqand shahridagi zamonaviy shaharsozlik ob'ektlarida qo'llanilgan naqsh va bezaklar, ularning qo'llanilish usullari va mazmun mohiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mamlakatda turizm salohiyatni oshirish maqsadida tarixiy yodgorliklarning zamonaviy shaharsozlikdagi o'rni va roli, ularning tutgan o'rni va yangi kurinishda loyihalashning asosiy mazmun mohiyati yoritilib berilgan.

Samarqandda O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoev va turli davlatlar elchilari ishtirokida «Buyuk ipak yo'li» (odamlar orasida «Samarkand Siti» nomi bilan mashhur) xalqaro turizm markazining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Majmua qurilishi 2019 yili boshlangan edi. Unga tajribali arxitektor va muhandislardan iborat xalqaro guruh jalb etildi. Ishda O'zbekistonlik quruvchilar bilan birga Turkiya, Buyuk Britaniya, Eron, Italiya kabi davlatlardan mutaxassislar ishtirok etdi. Ko'p tarmoqli markaz tarkibiga 8 ta zamonaviy mehmonxona, Kongress-xoll, «Boqiy shahar» majmuasi, amfiteatr va boshqa ko'plab inshootlar kiradi.

Turistik markaz binolarida Buyuk ipak yo'li davriga oid tarixiy suratlar aks ettirilgan. SHunday qilib, «Boqiy shahar» majmuasi bezaklarida qadimiy Afrosiyob devorlarida saqlanib qolgan So'g'd davlati hukmdorining Koreya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlar elchilarini qabul qilish marosimi tasvirlaridan foydalanilgan.

«Boqiy shahar» majmuasida eski bozor, O'zbekistonning barcha hududlari an'alariga mos 40 ta hunarmandchilik ustaxonasi mavjud. Bu erda qadimiy bozor, mamlakatimizning barcha hududlariga xos 40 ta hunarmandlik ustaxonasi tashkil etilgan. Unda ustalar yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish kabi jarayonlarini sayyohlarga namoyish etadi.

«Buyuk ipak yo'li» sayyohlik markazi hududida 15-16 sentyabr kunlari SHanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) davlatlarining sammiti bo'lib o'tadigan Kongress xoll joylashgan. Kongress xollning maydoni 18 ming kvadrat metrni tashkil etadi, sig'imi 3,5 ming kishigacha bo'lgan o'n uchta konferensiya zallari mavjud(1-rasm).



1-Rasm. Samarqanddagi Boqiy shaharning umumiy kurinishi.

Shavkat Mirziyoev «Buyuk Ipak yo'li»ning ochilish marosimida so'zlagan nutqida Samarqandning sayyohlik salohiyatiga to'xtalib, bu shaharga kelayotgan xorijlik sayyohlar sonini bir yarim milliondan ortiq kishiga etkazish rejalashtirilganini ma'lum qildi. Umuman olganda, hukumat oldida yaqin besh yil ichida O'zbekistonga sayyohlar oqimini hozirgi 2 milliondan 9 millionga etkazish vazifasi turibdi. Turizm sohasida band bo'lgan o'zbekistonliklar soni 500 ming kishidan ortishi kutilmoqda.

Samarqand aeroporti dunyo ahli azaldan Samarqandni ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazi sifatida biladi va uni bir bor ko'rish uchun oshiqadi. Shu nuqtai nazardan Samarqanddagi aeroport ulug' mutafakkir Mirzo Ulug'bekning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» kitobi sahifalarining ochilgan holatdagi ko'rinishida ekani ham chuqur ramziy ma'noga ega.

Bu aeroport, shubhasiz, shaharning «havo darvozasi» hisoblanadi. Qadim va hamisha navqiron shaharga tashrif buyurayotgan mehmonlarning ilk taassurotlari aynan mana shu erdan boshlanadi. SHu bois ushbu majmuadagi bino va inshootlarning arxitekturasi, dizayni, xizmat ko'rsatish madaniyati, bundagi muhit Samarqandga xos va mos bo'lishiga alohida e'tibor qaratildi. Nafaqat aeroport, balki unga tutash joylashgan mahalla va guzarlarda, ko'cha va xiyobonlarda ham obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, ushbu ob'ekt O'zbekistondagi eng yirik aeroportlaridan biriga aylanadi hamda mazkur «havo darvozasi»da 17 ta yangi muntazam xalqaro yo'nalishlar yo'lga qo'yiladi. Ikkinchidan, Buyuk Ipak yo'lida joylashgan aeroport quvvati jihatidan Markaziy Osiyoda ikkinchi raqamda qayd etilmoqda(2-Rasm).



2-Rasm. Samarqand aeroporti.

Zamonaviy masjidlar arxitekturasida shakllanaётgan etakchi an'analarni aniqlash maqsadida tarixiy masjidlar arxitekturasig xos xususiyatlarga ham to'xtalibo'tilishi va ularning asosan quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi: yaratilgan masjid binolarining mahalliy qurilish materiallari va imoratsozlik an'analari asosida shakllantirilishi; aksariyat masjidlar, ayniqsa, jome masjidlarining me'moriy-rejaviy echimlarida asosan ikki xil: yig'noq(ixcham) ichki zalli ayvonli kompozitsiya; bo'ylama o'qqa nisbatan simmetrik ichki hovlilari kompozitsiya-larning qo'llanilishi. Birinchi xil masjidlarda ayvonlar binoning tashqarisiga, bir, ikki yoki uch tarafiga qaratilgan bo'ladi. Ikkinchi xil masjidlarda xonalar va ayvonlarning ichki hovliga qaratilishi kuzatiladi; masjid xonalari tarkibida qishgi va yozgi: yopiqxonalar(qishgi xonaqoh), yarim yopiq(ayvon) va ochiq(hovli) ning shakllantirilishi; masjidlarning minorasi, gumbazi, mehrobi, minbari, kursisi, kirish qismi(darvozasi) va me'moriy tugallanish qismlarining bo'rttirilib ko'rsatilishi, mehrobning qibla tomonga qaratilishi; masjidlarning me'moriy shakllari, qismlari va elementlari(qishgi xonaqohlar, ayvonlar, minora, mehrob, hovli, darvozaxona) orasidagi me'moriy yaxlitlik va handasaviy mutanosiblik(hamohanglik)ni, bir so'z bilan aytganda, me'moriy uyg'unlikni ta'minlashga harakat qilinganligi; masjid tashqi tarzi va ichki ko'rinishlarining o'ziga xos girix, islamiy, yozuviy bezaklar, sharafalar, muqarnaslar va boshqa naqshin-nigorlar ham daranglar jilosi bilan uyg'unlashtirilganligi; masjidlarning, ayniqsa, jome masjidlarining aholi eng ko'p to'planadigan va zich joylashgan(registonlar, madrasalar, bozorlar qoshida va boshqa nufuzli) joylarda qurilganligi va joylashtirilganligi; ba'zi tarixiy masjidlarning boshqa jamoat binolari(masalan, tarixiy maktab va xonaqohlar) bilan simbioz tarzda qurilganligi; masjidlar atrofining obodonlashtirilishi va ko'kalamzorlashtirilishi. Bu xususiyatlar asrlar osha rivojlanib, zamonaviylashib kelgan va kelmoqda. Ularning aksariyati zamonaviy masjidlarga

ham xosdir. Hozirda qurilayotgan aksariyat masjidlar arxitekturasida Islom dini an'alarining masjidlarga qo'ygan eng asosiy qoidaviy talablariga amal qilinmoqda (3-Rasm).



3-Rasm. Samarqand shahridagi Xo'ja Abdu Darun majmuasi.

Kelajakdagi bino va inshootlar arxitekturasi, nafaqat o'z funksiyalariga mos, balki ayni paytda jamiyat ijtimoiy g'oyalarini ifoda etishi va odamlarga estetik zavq bag'ishlashi, mahalliy iqlim sharoitlari, milliy-madaniy an'alarga bog'liq hamda energiyasamarador holda loyihalaniishi zarur. Unutmastik kerakki, yangi ijtimoiy ehtiyojlar va g'oyalar yangi turdagi binolarning paydo bo'lishiga, yangi qurilish muammolari va konstruksiyalarining yaratilishiga sabab bo'ladi. Bunda, buyurtmachilarning madaniyati va estetik didi, iqtisodiy imkoniyatlari hamda arxitektori va muhandislarning kasbiy mahorati, tajribasi va tafakkuri hal qiluvchi rol o'ynaydi. Albatta, bitta-ikkita sanoqli favqulodda ajablanarli binolar barpo etish bilan butun Samarqandni zamonaviy shaharga aylantirish qiyin. Biroq, ayni paytda Samarqandimiz tarixiy shahar, deb hech narsa qilmay o'tirish ham mumkin emas. So'zsiz, Samarqand tarixiy, turistik shahar. Birgina shu yo'nalishning o'zini kelajakda takomillashtirgan holda rivojlantirish ham shahar kelajagini belgilab berishi mumkin. Bu borada, aytaylik, Samarqand shahrini kelajakda, Imom Buxoriy majmuasi markazi bilan uzviy bog'lash katta ahamiyat kasb etadi. Yoki Amir Temur bog'-saroylarining birortasini qayta tiklash ham mazkur yo'nalishdagi yaqin kelajak ishlarining biridir. Buni Amir Temurning tarixiy Bog'i Balandidan qolgan mavjud anjirzorlar joylashgan hududda amalga oshirish mumkin.

O'z davrida Samarqandda mavjud bo'lgan Amir Temur ark qal'asini qayta tiklashning iloji bo'lmasa-da, ushbu qal'a ichida joylashgan obida Sohibqironning pirlaridan biri Qutbi Choxarduxum (Nuriddin Basir) maqbarasi va unga tutashgan ark devorlari hamda arkni Registon bilan bog'lagan bosh darvozasini qayta tiklash, ark hududida arxeologlar topgan shohona hammom qoldiqlarini ochib qo'yish, ularni sayyohlik ob'ektiga aylantirish maqsadga muvofiq. O'tmishda, Registon yonida joylashgan 9 gumbazli "Bozori Sanduq", bir necha asrlar xalqqa xizmat qilgan hammom qoldiqlari ham er ostida qolib ketgan. Ularni topib, ochish va



turistlarga namoyish etish harakati hozirda qisman boshlangan, biroq boshlangan ish oxirigacha etkazilishi kerak.

Kelajakda shahar arxitekturasi rang-barang plastik uslublari, arxitektonikasi, jonli tabiatga o'xshash qiyofalari, energiya tejamkorligi, funksiyaviy universalligi kabi jihatlari bilan innovatsion xususiyatlarga ega bo'lishi zarur.

Samarqandda turistlar uchun eko-mehmonxonalar qurilishi ham rejalashtirilishi lozim. Bu mehmonxonalar, hozirgi mehmonxonalardan har bir nomeri tarkibida jonli tabiatga monand landshaft dizayni elementlari, qushlar sayrashi, mehmonxona hovlisidagi hovuzida mevalarning suv yuzida qalqib turishi bilan farq qilishi kerak.

Kelajakda avtomobillarning ko'payishi bilan ularni qo'yish va saqlash joylarini o'ylash, yangi qurilayotgan turar joy binolari va jamoat binolari, ayniqsa yirik savdo inshootlari (supermarket va gipermarketlar) ostki qavatlarida avtomobillar to'xtash va saqlash joylarini loyihalashni qat'iy tarzda belgilash lozim.

References:

1. Султанов А.Н., Уралов А.С. MODERN TRADITIONS OF DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF MOSQUE ARCHITECTURE. // *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. Vol 12, Issue 4, April 2022. India.
2. Султанов А.Н., Уралов А.С. Ўрта Осиёда замонавий масжидлар архитектурасини шакллантиришда исломий анъаналардан фойдаланиш.// "Архитектура, қурилиш ва дизайн илмий-амалий журнали" vol. 17, issue 1, mart 2022. 112-115 бетлар. ТАҚИ.
3. Махматқулов, I. T., & Sherqulova, D. G. (2022). SYMBOLIC MEANINGS AND CHARACTERISTICS OF PATTERNS AND DECORATIONS IN CENTRAL ASIAN ARCHITECTURAL MONUMENTS IN THE XIV-XV CENTURIES. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 744-749.
4. Махматқулов, I. T. (2022). Proposals for the Use of Historic Shopping Malls in Uzbekistan for Modern Purposes. *Middle European Scientific Bulletin*, 21, 198-201.
5. Махматқулов, I. T., & Karimova, N. A. (2022). Analysis of the functional features of the buildings of the khanaka-the institution of Sufism in Central Asia. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 46-51.
6. МАХМАТКУЛОВ, И. (2020). ТИПОЛОГИЯ АРХИТЕКТУРНО-КОМПОЗИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ ЗДАНИЙ ХАНАКА В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ. *Электронный сетевой политематический журнал "Научные труды КубГТУ"*, (8), 581-585.
7. Uralov, A. S., Makhmatkulov, I. T., & Kidirbaev, B. Y. FUNCTIONAL FEATURES, TYPES AND COMPOSITION OF PREMISES OF KHANAKA BUILDINGS IN CENTRAL ASIA. *Science and Education in Karakalpakstan ISSN 2181-9203*, 46.
8. Turdimurodovich, M. I., Djurakulovich, G. B., & Quziyevich, E. I. (2020). The role and place of the khanqahs in spreading the mysticism and spiritual purification to the peoples of central asia. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(3), 561-563.
9. Махматқулов, I. T. (2022). Scientific analysis of the Erkurgan historical and archeological complex in Karshi district of Kashkadarya region. *Journal of Architectural Design*, 4, 27-31.



10. Махматкулов, И. Т. (2022). ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ОРГАНИЗАЦИИ СТРОИТЕЛЬСТВА МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ СПОРТИВНЫХ СООРУЖЕНИЙ. In *СТУДЕНТ ГОДА 2022* (pp. 119-129).
11. Turdimurodovich, M. I. (2019). The khanqah of sayfiddin Bokharzi in Bukhara. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 8(11), 3234-3236.
12. Zubaydullayev, U. Z., & Maxmatqulov, I. T. (2021). ARCHITECTURE SELF-BUILT KHANAKA BUILDINGS OF MEDIEVAL CENTRAL ASIA. *World Bulletin of Management and Law*, 3, 56-59.